MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMIDA MULTIMEDIYALAR BOLALARNI O‘RGANISH DUNYOSIGA JALB QILUVCHI VOSITA

M.Q.Abdurasulova
Guliston davlat pedagogika instituti
“Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim metodikasi’’
kafedrasi magistranti
e-mail: abdurasulovamohidil37@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida multimediya vositalarining afzalliklari va kamchiliklarini, ularning o‘rganish jarayonini boyitish va bolalarni o‘rganish dunyosiga jalb qilishda muhim ro‘lini takidlaydi.Shuningdek,ushbu texnalogiyalarni samarali qo‘llashga qaratilgan amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.

Kalit so‘zlar: Maktabgacha ta’lim, multimediya, bolalarni o‘rganishga jalb qilish, Interaktiv ta’lim,o‘yin orqali o‘rganish, ta’limni boyitish, texnalogiya, zamonaviy ta’lim.

Abstract. This article highlights the importance, advantages and disadvantages of multimedia materials in preschools, their important role in enriching the learning process and engaging children in the world of learning. It also provides practical recommendations for effective use of these technologies.

Key words: Pre-school education, multimedia, engaging children in learning, Interactive education, learning through games, educational enrichment, technology, modern education.

Hozirgi zamonda texnalogiya jamiyatimizning ajralmas qismiga aylandi. Bolalarning dastlabki yillarida ham ularning texnalogiyaga ta’sirlanishi tobora kuchayib bormoqda. Shu sababli, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida multimediya vositalarini qo‘llashni zamonaviy o‘quv jarayonining muhim qismi sifatida ko‘rish muhimdir. Multimediya vositalari bolalarning o‘rganish qiziqishini oshirish, ularni o‘rganish dunyosiga jalb qilishda muhim ro‘l o‘ynaydi. Multimediya - turli xil vositalarini, jumladan audio, video, animatsiya, rasmlar, interaktiv dasturlar va boshqalarni birlashtirgan ta’limusulidir. Ushbu usul bolalarning o‘rganish jarayoniga rang-baranglik, interaktivlik va ta’sirchanlik qo‘shadi. Aynan maktabgacha ta’lim davri-bolaning faol anglaydigan yosh xisoblanadi. Chunki bu vaqt bolaning psixologiyasi va ongi uchun muhim voqealarga boy bo‘ladi. Shuning uchun bu davrda bolaning har bir qiziqishini e’tiborga olib, uni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirish lozim. Xususan, yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev maktabgacha ta’lim tizimi haqida quyidagi fikrlarni bejizga bildirmagan, “Aslida, farzandlarimiz tarbiyasida eng asosiy bo‘g‘in hisoblangan maktabgacha ta’lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o‘rni va ahamiyati hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydi. Aynan maktabgacha ta’lim sohasida bo‘lgan e’tibor mamlakatning ertangi taraqqiyoti uchun mustahkam zamin yaratadi”.

Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tiziming boshlang‘ich bo‘g‘ini hisoblanadi. Bu bo‘g‘inda bola har tomonlama sog‘lom va yetuk shaxs sifatida shakillantiriladi, o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqi paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Hozirgi globallashuv davrida maktabgacha yoshda bo‘lgan bolalar tarbiyasida multimediya vositalaridan foydalanish kerakmi degan savolga ikki xil yondashuv mavjud: Kimdir bolaga yoshligidan kompyuter texnalogiyalarini o‘rgatib borish kerak desa, kimdir bunga kompyuter texnalogiyalarining zararli oqibatlari tufayli qarshi fikrda bo‘lishi ham mumkin. Menimcha, zamon talablaridan kelib chiqib, maktabgacha ta’lim muassasalarida multimediya vositalaridan foydalanish foydadan xoli emas.

Multimediya vositalari bolalarga o‘zlarining g‘oyalarini ifoda etish va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatini beradi. Masalan, rasm chizish dasturlari, musiqiy dasturlar va video yaratish dasturlari ularga o‘zlarining ijodkorligini namoyish etishga imkon beradi. O‘zlashtirishni oshiradi, o‘quv jarayonini interaktiv va ta’sirchan qilish orqali bolalarning ma’lumotni eslab qolish va o‘zlashtirish darajasini oshiradi. Kompyuter grafikasi va turli slaydlar yaratib bola nutqini o‘stirish, sodda matematik amallarni o‘rganish, chet tillarini o‘rgatishni osonlashtirish, hatto shaxsiy gigiyena bo‘yicha ham foydalanish mumkin. Bu usullardan qandey foydalanish, video va slaydlarni qandey yaratish bu tarbiyachilarning indevidual mahoratiga bog‘liq bo‘ladi. Bu kichik maqolada ozroq tavsiya va yo‘l-yo‘riq berish imkoniyati bor xolos.

Ushbu kichik tavsiyalarni amaliyotda bajarib ko‘ring:

I. Nutq o‘stirish bo‘yicha “Bu kim?, Bu nima? ”o‘yini.

1) Turli kasb egalari (shifokor, o‘qtuvchi, uchuvchi, sportchilar) rasmlari qo‘yilib bolalarga “Bu kim?”savoli beriladi.

2) Turli hayvonlar (sigir, qo‘y, echki, mushuk) rasmlari qo‘yilib bolalarga “Bu nima? ” savoli beriladi.

Jarayon soddadan murakkablikka qarab yo‘naltirib boriladi.

II. Bola dunyoqarashi va fikrlash darajasini oshirish maqsadida “Keyin nima bo‘ladi?”, o‘yinlarini o‘tkazib borish. Bunda misol uchun havoni bulut qoplab borish jarayoni ko‘rsatiladi. Bolalarga “Keyin nima bo‘ladi?”, savoli tashlanganda “shamol bo‘ladi”, “yomg‘ir yog‘adi”, “kamalak chiqadi” kabi javoblar bo‘ladi. Albatta tarbiyachi bunda bolalarga tabiat hodisalari, fasllar almashishi, yomg‘ir qandey paydo bo‘lishi va hakazolar haqida ma’lumot berib boradi.

III. Bulardan tashqari sodda matematik amallarni bajarishni o‘rgatish bo‘yicha “Mevalar o‘yini” , “Mashinalar soni” o‘yinlarini ham qiziqarli qilib o‘tkazish mumkin. Bola nutqini o‘stirishda kompyuterning Photoshop dasturidan keng foydalanib ijobiy samaralarda erishish mumkin. Photoshop dasturining qatlamlariga to‘rt fasl rasmlarini joylab rasm asosida bolani biyron gapira olishga, so‘z boyligini yanada oshirishga erishish mumkin. Bundan tashqari shu kabi foydali usullarni turli faoliyatlardan foydalanish mumkin.

Endigi jiddiy masala-maktabgacha ta’lim muassasalarida axborot tehnalogiyalari yetarlimi va ularni mukammal beradigan mutaxassislar yetarlimi?. Oliygohlarda yetishib chiqayotgan mutahasislarning bu boradagi bilimlari yetarlimi? Bunga qo‘shimcha tarzda maktabgacha ta’limda multimediya vositalarini samarali qo‘llash uchun quyidagi maslahatlarni berish mumkin:

-Bolalarni yosh xususiyatlarini hisobga olish;

-O‘quv jarayoniga integratsiya qilish;

-Bolalar uchun mo‘ljallangan xafsizlik va multimediya materiallari;

-Dasturlarni tanlash;

kerak.

Ota-onalar bilan hamkorlik qilish va ularni multemediya vositalarini to‘g‘ri ishlatish, nazorat qilish vaqtlarini belgilash bo‘yicha maslahat berish kerak.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’limda multimediya vositalarini samarali qo‘llash bolalarning o‘rganish qiziqishini oshirish, ularning ijodkorligini rivojlantirish va o‘zlashtirish darajasini oshirishga yordam beradi. Biroq, multimediya vositalarini to‘g‘ri va o‘z vaqtida qo‘llash, bolalarni texnologiyalarga haddan tashqari qaram qilishdan saqlanish muhimdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi nutqi. 30.09.2020. y

2. “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” gi Qonun 2019-y.

3. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari 2018 y.

4. N. N. Azizxo‘jayeva Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat’’ O‘quv qo‘llanma. Toshkent - 2006.

5. B. Ziyomuhammadov, M. Tojiev “Pedagogik texnologiyalar - Zamonaviy o‘zbek milliy modeli” –Toshkent. - 2009.

MAKTABGACHA TA’LIM TARBIYACHISINING SHAXSIY VA KASBIY SIFATLARINI BADIIY ADABIYOTLAR ORQALI SHAKLLANTIRISH

Z.V.Suvonqulova
Guliston davlat pedagogika instituti
“Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(maktabgacha ta’lim)” yo‘nalishi magistranti
e-mail: zariiinsuvonqulova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tezisda bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarning ish faoliyatida muhim bo‘lgan shaxsiy va kasbiy sifatlarini badiiy adabiyotlar orqali shakllantirishning muhim ahamiyatlari bayon etilgan. Kelgusida tarbiyachilarning shaxsiy va kasbiy sifatlarini shakllantirish ko‘nikmalari tahlil qilingan. Shuningdek badiiy adabiyotning insonga ta’siri ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: shaxsiy, kasbiy, tarbiyachi, sifat, badiiy adabiyot, bolalar, raqamli texnologiya, yangilik.

Annotation. This thesis discusses the significant importance of developing personal and professional qualities of future educators through literary works. It analyzes the skills necessary for shaping the personal and professional qualities of educators in the future. Additionally, it highlights the impact of literary literature on individuals.

Key words: personal, professional, educator, quality, literary work, children, digital technology, news.

Badiiy adabiyotlar insonni komillikka yetaklaydi. Unda turlicha qismatlarni, hikmatlarni, dunyoqarashlarni, muammolarni, yechimlarni ko‘ramiz, xulosa chiqaramiz. Eng asosiysi, o‘zimizni tarbiyalaymiz. Hozir kundan kunga badiiy adabiyotga bo‘lgan qiziqish ortib boryabdi. Ammo vaqtini befoyda narsalarga sarflayotgan yoshlar ham kam emas. Bolaga yoshligidanoq kitobga bo‘lgan mehrini oshirish insonni o‘z qo‘lida. Bola eng ko‘p vaqtini oila davrasida va maktabgacha ta’lim tashkilotida o‘tkazadi. Bola tarbiyasi murakkab jarayondir. U tarbiyani eng ko‘p onasi va tarbiyachisidan oladi. Tarbiyachi pedagog ham ikkinchi ona hisoblanadi. Shuning uchun bolani tarbiyalovchi har bir shaxs o‘zini shunga mos va xos tutishi lozim. Yer yuzidagi barcha onalarni bunga tayyorlay olmaslik mumkindir, ammo tarbiyachilarni tayyorlay olsa bo‘ladi. Tarbiyachi bolani tarbiyalashda eng avvalo shaxsiy va kasbiy sifatlaridan foydalanadi. Uning shaxsiy sifatlari bolani kamsitmaslik, unga doimo yaxshi muomilada bo‘lish, savollarini bee’tibor qoldirmaslik, bolani ajratmaslik, kasbiy sifatlari esa faoliyat jarayonini to‘g‘ri tashkil qilishi, yangilikni qabul qila olish, uni tez qabul qilish va faoliyatga to‘g‘ri joriy qilishi, raqamli texnologiyalardan foydalanishni bilishi, ish hujjatlarini yurita olishi hisoblanadi.

Aynan tarbiya bilan shug‘ullanuvchilar uchun Masaru Ibuka ning “Uchdan keyin kech” asari ayni muddaodir. Unda aytilishicha, “Qoloq bolalar yo‘q. Barchasi o‘qitish usuliga bog‘liq.” Bu asar tufayli tarbiyachilar shaxsiy va kasbiy sifatlarini shakllantirib, tarbiyalanuvchilarni barchasiga e’tibor berish, ularni sinchiklab kuzatish kim qanday qobiliyatga ega ekanligini bilib olishni o‘rganadi. “Bola miyasi cheklanmagan miqdorda ma’lumot qabul qila oladi.” Ha albatta, bolani “buni tushinmaydi”, “buni bilmaydi” deb emas, balki, unga qiyinroq bo‘lgan ma’lumotlarni bola tilida tushuntirish va barcha savollariga erinmasdan javob berishni amaliyotda qo‘llash lozim. Bu asarda “Bola faqat o‘ziga qiziq bo‘lgan ma’lumotnigina eslab qoladi” deyilgan va bu tarbiyachilarga har bir mashg‘ulotini qiziqarli o‘tishi kerakligini anglatadi.

Yapon xalqida bir maqol bor: “Yoshlikda olingan bilim toshbaqaning kosasidan ham mustahkam bo‘ladi.” Anglab yetish kerakki, bolaga tarbiyani yoshligidan to‘g‘ri berish kerak.

Bir odam donishmanddan “Taqsir men farzandli bo‘ldim, aytingchi unga ilm berishni qachondan boshlashim kerak” deb so‘raganda, donishmand: “Kechikibsiz, unga ilm berishni ona qornidan boshlash kerak edi” deb javob bergan ekan. Shundan bilish mumkinki, bolaning eng muhim davri bu – uning yoshligidir. Tarbiyachi qanchalik ko‘p kitob bilan tanishsa, shunchalik faoliyat jarayonida qiynalmaydi va bolalarga to‘g‘ri tarbiya bera oladi.

Grigoriy Petrovning “Oq nilufarlar yurtida” asarida yozilishicha, Amerikaning Garvard Universitetidagi dunyoga taniqli finlandiyalik o‘qituvchi Pasi Sahlbergning ta’kidlashicha, Finlandiyaning xalqaro ta’lim sifati bo‘yicha doimo birinchi o‘rinni egallashining asosiy sababi: jamiyat bolalarni doimo qo‘llab quvvatlashi, ta’lim hamma uchun tengligi, mamlakatning esa ta’lim sohasiga ko‘proq pul ajratishidir.

Erkin Malikning “Chumolilar saltanati” asarida ajoyib satrni uchratish mumkin. Yozilishicha: Chumolilar bola tarbiyasiga nihoyatda e’tiborli ekan. Ular: Hayotda bir yil mazza qilib yashayman desang, dehqonchilik qil , o‘n yil mazza qilib yashash uchun bog‘bonchilik qil, yuz yil va undan ham ko‘proq mazza qilib yashayman desang, bolalar tarbiyasi bilan shug‘ullan” degan shiorga amal qilishar ekan. Ha, ular uchun bolalar tarbiyasi hamma narsadan muhim, hamma narsadan ustun ekan. Bunday asarlarni o‘qigan tarbiyachining shaxsiy va kasbiy sifatlari shakllanmasdan qolmaydi. Nafaqat, tarbiyachilar balki, onalar ham bunday asarlarni o‘qishi bolalar tarbiyasi uchun ayni muddaodir. Tarbiyachi oila bilan muntazam hamkorlikda bo‘lib ota-onalarga bunday asarlarni o‘qishni tavsiya qilsa, bola har tarafdan mukammal bo‘lib shakllanadi.

Uzluksiz ta’lim tizimida raqamli va innovatsion texnologiyalarning dolzarb muammolari

“Farzand Yaratganning omonati, uning kamolotida ota-ona, ta’lim muassasalari va jamiyatning muhim o‘rni bor. Ayrimlar bola degani kattalar aytganiga ko‘nib yelkasini qisib turishi shart, also o‘z fikrini bildirib mahmadonalik qilishi kerak emas, deb hisoblashadi. Bunday mute bolalar ulg‘aygach jamiyatga nima beradi? Aslida farzandi bilan kichik yoshidanoq kattalardek suhbat qurgan, savollariga javob bergan, mehr bilan tarbiya qilgan ota-onalar bu xatti-harakatlari bilan asl insonni tarbiyalaydilar! Bolalarni, avvalo, inson qilib tarbiyalash ota-ona va ta’lim tizimining maqsadiga aylansa, biz tom ma’noda shaxs sifatida shakllangan hur fikrli, har tomonlama yetuk avlodlarga ega bo‘lamiz. Ana shunda bundan jamiyat ham, Vatan ham manfaat ko‘radi!” – deydi “Jazosiz tarbiya” asarining muallifi Adam Gunesh. Bunday asar tarbiyachining umumiy sifatlariga albatta samarali va foydali ta’sir o‘tkazadi.

“Ko‘rsatkich barmog‘ini bolaga niqtab baqiradiganlar bilib qo‘ysinki, u bolani tarbiya qilayotgani yo‘q, aksincha, bolaning qalbida ildiz otayotgan aybdorlik tuyg‘usini ilk urug‘larini qadamoqda.” deyiladi “Baqirmaydigan onalar” asarida. Qanchalik haqiqat. Haqiqatdan ham kelajakda bola aybi bo‘lmagan vaziyatlarda ham o‘zini aybdordek his qiladi. Hammaga ma’lumki aybdorlik hissi insonni ich-ichidan yemiradi.

“Oradan yillar o‘tib hech kim uyimizning betartib bo‘lgani, yoyilib yotgani haqida gapirmaydi, biroq biz bugun tarbiya qilayotgan, qalblariga mehr urug‘ini qadayotgan bolajonlarimiz umr bo‘yi xotirlanadigan, xayrli ishlarni amalga oshiradilar.” Xadicha Kubro Tongarning mana shu satrlarni hech kimni e’tiborsiz qoldirmaydi.

Jaloliddin Rumiy: “O‘ylaring so‘zlaringga, so‘zlaring fe’lingga, fe’ling taqdiringga nuqs etadi. Go‘zal o‘yla, go‘zal yasha.” deganlaridek bolani tarbiyalaydigan kishi avvalo o‘zi tarbiyalangan bo‘lmog‘i lozim. Har doim yaxshi narsalarni o‘ylash, fikrlash insonni aurasiga xuddi shunday narsalarni chorlaydi. Zero, farzand – oilaning ko‘zgusidir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Adam Gunesh “Jazosiz tarbiya 2” Yangi asr avlodi. 2023
2. Erkin Malik “Chumolilar saltanati” Akademnashr. 2022
3. Grigoriy Petrov “Oq nilufarlar yurtida” Factor press. 2021
4. “Jaloliddin Rumiy hikmatlari” ziyouz.com sayti
5. Masaru Ibuka “Uchdan keyin kech” Akademnashr. 2019 13-bet.
6. Xadicha Kubro Tongar “Baqirmaydigan onalar” Yangi asr avlodi. 4-bet, 22-bet.